

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 339.727.22.001.76 (575.1)

YO‘LDOSHEVA MAFTUNA BAXTIYOR QIZI

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA XORIJIY
INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. N.R. Kuziyeva

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I bob.	IQTISODIYOT MODERNIZATSIYASI SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH USULLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	14
1.1.	Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi, mohiyati, shakllari va omillari	14
1.2.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning zamonaviy tendensiyalari	33
1.3.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullariga oid ilg'or xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish yo'nalishlari	52
	1-bob bo'yicha xulosa	64
II bob.	MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH USULLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINING TAHLILI	66
2.1.	Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili	66
2.2.	Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmi, tarkibi va yo'nalishlarining tahlili	85
2.3.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari tahlili	104
	2-bob bo'yicha xulosa	114
III bob.	XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISH VA ISTIQBOLLARI	117
3.1.	Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullaridan foydalanishda mavjud tizimli muammolar va ularni hal etish yo'nalishlari	117
3.2.	Yangi O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullarini takomillashtirish istiqbollari	128
	3-bob bo'yicha xulosa	144
	XULOSA	147
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	151

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishning muhim drayveri bo'lib, uning samaradorligi mamlakatning investitsiyaviy muhiti va siyosatining sifatiga bog'liq. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, "2020-yilda "Covid-19" pandemiyasi sababli global TTXI oqimi 35 %ga qisqarib, Yevropa va AQShda mos ravishda 80 % va 40 %ga pasaygan, 2022-yilga kelib esa 1,58 trln. AQSh dollariga yetib, tiklanish bosqichiga kirgan. O'zbekistonda 2019-yilda TTXI hajmi 4,2 mlrd. AQSh dollari bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 8,1 mlrd. AQSh dollariga yetib, 93 %ga o'sdi. Biroq xalqaro mezonlarga ko'ra, TTXI oqimining YaIMga nisbati 4-6 % bo'lishi investitsiya muhitining yuqori jozibadorligini anglatadi, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2023-yilda 4,3 %ni tashkil etgan. Jalb qilingan TTXIning 62 %i sanoatga, 18 %i infratuzilmaga, 12 %i xizmat ko'rsatish sohasiga va 8 %i qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan. Singapur va Janubiy Koreyada esa sarmoyalarning asosiy qismi yuqori texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilib, 2023-yilda bu ko'rsatkich Singapurda 48 %ni, O'zbekistonda esa 7 %ni tashkil qildi. Shu sababli investitsiya muhitini yaxshilash, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda transport logistikasining samaradorlik indeksi 2023-yilda 2,75 ballni tashkil etgan (5 balldan), bu esa infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi"¹. Shu nuqtayi nazardan, TTXIning iqtisodiyotga ta'sirini maksimallashtirish va ularni yuqori texnologiyali sohalarga yo'naltirish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi va global investitsiya oqimlariga integratsiyalashuvini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, mamlakatning investitsiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish, hududlarning

¹ Конференция Организация Объединенных Наций по торговле и развитию. Обзор. Доклад о мировых инвестициях 2023. Инвестиции в устойчивое развитие. UNCTAD.

jozibadorligini oshirish va investitsiya siyosatini tarkibiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan. Bunday tadqiqotlarda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun moliyaviy va soliq imtiyozlarini joriy etish, fond bozorlarini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilish va turli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish kabi mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilmoqda. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish jarayonining institutsional asoslarini mustahkamlash, innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarga yo'naltirish, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar orqali iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi. Bunday yondashuvlar xorijiy investitsiyalarning tarkibiy samaradorligini oshirish, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy foydasini ta'minlash va mamlakatning global sarmoyaviy makondagi o'rnini mustahkamlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, chet ellik investorlarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va ularni himoya qilish, shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilashga yo'naltirilgan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion-investitsiyaviy jarayonlarni jadallashtirishga qaratilgan. Zamonaviy global iqtisodiy jarayonlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotni tarmoqlararo integratsiya qilish, sanoat salohiyatini modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Shu bois investitsiya muhitining institutsional takomillashuvi, huquqiy va tartibga soluvchi mexanizmlarning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, investitsiya faolligini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarning samarali amalga oshirilishi mamlakatda investitsiya muhitining sifat jihatdan yaxshilanishini taqozo etadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investitsiyalarning samaradorligi

ulardan oqilona foydalanish, investitsiyaviy jarayonlarni tizimli ravishda muvofiqlashtirish va iqtisodiyotning tarmoqlararo diversifikatsiyasini ta'minlash darajasiga bog'liq. Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning global investitsiya oqimlariga integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-sonli "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 25-avgustdagi PQ-5233-sonli "Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PQ-5243-sonli "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 2-noyabrdagi PQ-5274-sonli "Mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan soliqlarni to'lashni kechiktirish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-iyuldagi 547-sonli "Xorijiy investorlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 7-iyundagi 306-sonli "Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2023-yil 7-sentabrdagi 452-sonli "Maxsus iqtisodiy zonalar hududida investorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy investitsiyalarning nazariy jihatlarini, ularni jalb qilishdagi muammolar taniqli iqtisodchilardan M.Fridman va P.Fisherning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan².

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy va amaliy jihatlarini, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhiti, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari rossiyalik iqtisodchi-olimlardan G.Birguliyeva, N.Levensev, G.Kostyunina, D.Muxa, L.Matrayeva, Y.M.Filatova, S.Yerokhin, M.Suleymanov, A.Mixin, G.Oksyutik, K.Pozdnyakov, Y.Petrushkevich, R.Sarkisyan, P.Fisher, M.Shallayeva tomonidan tadqiq etilgan³.

O‘zbekistonlik olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Mo‘minov, B.Valiyev, N.Jumayev, D.G‘ozibekov, E.Nosirov, U.Nadixanov, N.Karimov,

² Фридман М. Количественная теория денег. – М.: Дело, 1996. – 276 с.; Фишер П. Прямые иностранные инвестиции для России. – М.: Финансы и статистика, 1999. – 506 с.

³ Биргулиева Г.Ф. Прямые иностранные инвестиции как фактор экономического роста в условиях инновационного развития России. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – СПб.: УГАТУ, 2009. – 27 с.; Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. – М.: Экономист, 2007. – 368 с.; Муха Д.В. Макроэкономическая эффективность привлечения прямых иностранных инвестиций в Республику Беларусь. Монография. – Минск: Белорусская наука, 2017. – 262 с.; Матраева Л.В., Филатова Ю.М., Ерохин С.Г. Иностранные инвестиции: учебник. – М.: Дашков и Ко, 2014. – 248 с.; Сулейманов М.Д., Михин А.А. Иностранные инвестиции. Монография. – М.: МНИ, 2011. – 93 с.; Оксюттик Г.П. Иностранные инвестиции в России. Монография. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. – 220 с.; Pozdnyakov K.K. The theoretical basis of the mechanism of attraction of foreign investments in the Russian regions and the rationale for their practical applicability. Raleigh, NorthCarolina, USA: LuluPress, 2015. – 174 p.; Петрушкевич Е.Н. Международные прямые инвестиции в мировой экономике: теория, методология, государственное регулирование. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. д.э.н. – Минск: БГЭУ, 2020. – 51 с.; Рогатнев Н.С. Эффекты прямых иностранных инвестиций в развивающихся странах: типология, моделирование, регулирование. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – Воронеж: ВГУ, 2015. – 24 с.; Саркисян Р.А. Роль прямых иностранных инвестиций в экономике Республики Армения. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – М.: РУДН, 2018. – 25 с.; Фишер П. Привлечение в Россию прямых иностранных инвестиций: стратегический подход. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. д.э.н. – М.: ВШЭ, 2002. – 32 с.; Шаллаева М.Г. Особенности и проблемы привлечения иностранных инвестиций в экономику региона (на примере Республики Дагестан). Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – М.: ГУУ, 2012. – 26 с.; Чачина Е.Г. Активизация притока иностранных инвестиций в экономику региона. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – Уфа: УГАТУ, 2005. – 28 с.

J.Karimqulov, G.Karimova, B.Mamatov, M.Raimjanova, D.Rustamova, Q.Xoshimov, R.Kuziyev, N.Kuziyeva, M.Pulatova, A.Qobilov, B.Tuxliyevning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishdagi muammolar, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlari, xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish kabilar o'rganilgan, tahlil qilingan va bu borada ilmiy asoslangan xulosa, taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan⁴.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy izlanishlari, dissertatsiya ishlari tadqiqot sifatida tanlangan mavzuga u yoki bu darajada bog'liq bo'lsa-da, ularning hech birida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari tadqiqot obyekti sifatida qo'yilmagan va o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITI-3-sonli "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida to'qimachilik

⁴ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – 328 b.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – 332 b.; Valiyev B.B. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: PMTI, 2017. – 31 b.; Jumayev N.X. Xalqaro moliya munosabatlari. – T.: TMI, 2003. – 293 b.; G'ozibekov D.G'. Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 110 b.; Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. Монография. – T.: Fan va texnologiyalar, 2011. – 184 s.; Каримов Н.Г. Иностранные инвестиции в экономику Республики Узбекистан и их финансовое обеспечение: автореферат дис.кандидата экономических наук: 08.00.10. – T.: TFI, 1998. – 24 c.; Karimqulov J.I. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2021. – 78 b.; Karimova G.A. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – 31 b.; Mamatov B.Sh. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayoniga xorijiy investorlarni jalb qilishni kengaytirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: DBA, 2021. – 53 b.; Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2012. – 27 b.; Hoshimov Q.B. Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nomz. ilmiy dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: O'MU, 2004. – 24 b.; Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari. Iqt. fan. nomz. ilmiy dar. olish uchun yoz. diss. avtoreferat – T.: TMI, 2006. – 26 b.; Kuziyev R.R. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2021. – 64 b.; Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008. – 46 b.; Pulatova M.B. Iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish holati va istiqbollari. Ilmiy maqola – T.: "Moliya" ilmiy jurnali, 2015. – 64 b. Qobilov A.E. Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch: UDU, 2021. – 61 b.; Tuxliyev B.K. Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2021. – 70 b.

va yengil sanoat innovatsion-investitsion faoliyati moliyaviy ta'minotining ilmiy asoslari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xorijiy investitsiyalar va ularni iqtisodiyotga jalb qilishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdagi roli va ahamiyatini asoslash;

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini tadqiq etish va unga oid tendensiyalarni aniqlash;

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash;

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va ularni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash;

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali usullarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, guruhlash, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, ekonometrik tahlil, tahlil va sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtisodiy o'sishning yangi va ustuvor-istiqbolli manbalarida potensial va manfaatli investorlarning "investitsion mavqeyi"ni mustahkamlash strategiyasi taklif etilgan;

xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi darajasining investitsion faollik va jalb etilgan sarmoyaning daromadlilik ko'rsatkichlari asosida investitsion reytingini baholash taklif etilgan;

istiqbolda xorijiy investorning yuqori qiymatli va o'z mablag'lari ulushi 25 foizdan kam bo'lmagan qo'shma investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi taklif etilgan;

ming kvadrat metrdan ortiq yer uchastkalari va bino-inshootlarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritgan tadbirkorlik subyektlariga mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan soliqlarni to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qo'shimcha bozorlardan (mamlakatlardan) ko'proq va sifatli to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga oid ustuvor-istiqbolli tartib ishlab chiqilgan;

xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarining tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish orqali korxonalarda qo'shimcha qiymat zanjiri yaratilishini rag'batlantirish tartibi taklif etilgan;

maxsus iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihasini joylashtirish uchun investitsiya buyurtmanomasini taqdim etish tartibi ishlab chiqilgan;

mamlakatning investitsiya imiji va investitsion jozibadorligini yanada yaxshilash, uning investitsion salohiyatidan xabardorlikni oshirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashni takomillashtirish va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida "xorijiy investorlarga ko'maklashish guruhi"ni tashkil etish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning

amaliyotga joriy etilganligi, muayyan normativ-huquqiy hujjatlar, turli xalqaro tashkilotlar, tegishli idora va muassasalarning hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, shuningdek, Samarqand viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasining rasmiy statistik ma’lumotlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, takomillashtirishga bag‘ishlangan maxsus, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borilishida keng ko‘lamda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, investitsion muhitni tubdan yaxshilashga qaratilgan huquqiy asoslarni takomillashtirish, isloh etishga bag‘ishlangan ilmiy konsepsiya, qonunlar, qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Investitsiya va innovatsiya” va “Investitsiya siyosati” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali usullarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

– iqtisodiy o‘rta o‘qishning yangi va ustuvor-istiqbolli manbalari hisobidan milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish usullarini takomillashtirish maqsadida potensial va manfaatli investorlarning “investitsion mavqeyi”ni mustahkamlashning milliy strategiyasini ishlab chiqishga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-yanvardagi 03/41-7-1986-son ma’lumotnomasi). Mazkur